



THE STRATEGIC DEVELOPMENT MODEL OF UZBEKISTAN AMID GLOBAL TRANSFORMATIONS: A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH

Abdulla Sayfullayevich Mansurov

Senior Lecturer

Namangan State Technical University

E-mail: lider198304@list.ru

Namangan, O'zbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: strategic modeling, Uzbek model, Action Strategy, Development Strategy, socio-philosophical analysis, public administration, innovative approach, reform efficiency.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the issues of improving the efficiency of governance in the context of socio-political and economic reforms in New Uzbekistan through the use of strategic modeling. The study explores the evolutionary and reformist aspects of the Uzbek model and examines the dialectical interrelation between the Action Strategy and the Development Strategy from a philosophical perspective. Special attention is given to the role of strategic modeling in societal development and to the relevance of applying systematic analysis and forecasting methods in public administration.

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING STRATEGIK RIVOJLANISH MODEL: IJTIMOY-FALSAFIY YONDASHUV

Abdulla Sayfullayevich Mansurov

Katta o'qituvchi

Namangan davlat texnika universiteti

E-mail: lider198304@list.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zl: strategik modellashtirish, O'zbek modeli, harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, davlat boshqaruvi, innovatsion yondashuv, islohotlar samaradorligi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarning strategik modellashtirish asosida boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbek modelining

evolyutsion va inqilobiy jihatlar, harakatlar strategiyasi va taraqqiyot strategiyasining dialektik aloqadorligi falsafiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, strategik modellashtirishning jamiyat rivojlanishidagi oʻrni, davlat boshqaruvida tizimli tahlil va bashorat metodlarini qoʻllashning dolzarbligi koʻrsatilgan.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ И СТРАТЕГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ПОДХОД

Абдулла Сайфуллаевич Мансуров

Старший преподаватель

Намганского государственного технического университета

E-mail: lider198304@list.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: стратегическое моделирование, узбекская модель, стратегия действий, стратегия развития, социально-философский анализ, государственное управление, инновационный подход, эффективность реформ.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности управления социально-политическими и экономическими реформами, проводимыми в условиях Нового Узбекистана, на основе стратегического моделирования. Исследованы эволюционные и реформаторские аспекты узбекской модели, а также диалектическая взаимосвязь Стратегии действий и Стратегии развития с философской точки зрения. Особое внимание уделено роли стратегического моделирования в общественном развитии, а также актуальности применения системного анализа и методов прогнозирования в государственном управлении.

Kirish. Strategik modellashtirish mohiyatan inson tafakkurining yuksak darajada rivojlangan shaklidir. U shunchaki rejalashtirish yoki statistik bashorat bilan cheklanmaydi; u jamiyatni, insonni va davlatni ongʻli ravishda oʻzgarishga yoʻnaltiruvchi intellektual ijod jarayonidir. Har qanday model avvalo inson tafakkurining mahsuli boʻlib, unda aql, idrok va qadriyat uygʻunligi mujassam boʻladi. Strategik fikrlash insonning oʻz hayotini, jamiyatdagi oʻrnini va kelajagini ongʻli tarzda belgilashga undaydi.

Bu jarayon mohiyat eʼtibori bilan “sabab – natija – oqibat” qonuniyatlariga tayangan holda ishlaydi. Har bir qaror yoki harakat inson tafakkurining ichki mexanizmi – refleksiya, yaʼni oʻzini anglash orqali shakllanadi. Falsafiy nuqtai nazardan, strategik modellashtirish Hegelning “harakatdagi aql” tamoyili va Forobiyning “faol aql” nazariyasi bilan bevosita bogʻliqdir. Hegel

uchun tafakkur bu sust kuzatuv emas, balki dunyoni o'zgartiruvchi kuchdir; Forobiy uchun esa aql jamiyatni boshqarishning asosiy vositasi, ya'ni "fozil insonning" ma'naviy qudratidir.

Demak, strategik modellashtirish – bu harakatdagi tafakkur, inson ongining faol holatidir. U insonning o'z taqdirini, o'z kelajagini ongli boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Bugungi Yangi O'zbekiston islohotlari ham aynan shu falsafiy mohiyatni o'zida mujassamlashtiradi: inson endilikda siyosiy, iqtisodiy yoki ma'muriy jarayonlarning passiv ishtirokchisi emas, balki ularning subyekti, faol yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shaxs – jamiyat – davlat munosabatlari endi gorizontal asosda, hamkorlik va ishonch tamoyillariga tayanib shakllanmoqda.

Shunday qilib, strategik modellashtirish nafaqat siyosiy boshqaruv vositasi, balki inson tafakkurining yangi madaniyatini ifoda etadi. Bu jarayonda bilim, mas'uliyat va axloq bir butun tizim sifatida namoyon bo'ladi. Inson endi kelajakni oldindan ko'ra oluvchi subyekt, davlat esa shu ongli harakatni muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Asosiy qism. O'zbek modelining falsafiy asosi barqarorlik, tadrijiylik va insonparvarlik tamoyillariga tayanadi. U o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy taraqqiyotda keskin inqilobiy silkinishlarni emas, balki bosqichma-bosqich, izchil va ongli yangilanishni taqozo etadi. Bu model milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va zamonaviy boshqaruv tamoyillarining uyg'unlashgan mahsulidir.

2017–2021 yillardagi Harakatlar strategiyasi O'zbekiston jamiyatining yangi paradigmasini shakllantirdi. Unda iqtisodiy modernizatsiya, ijtimoiy adolat, huquqiy islohotlar va ma'naviy tiklanish g'oyasi bir butun tizim sifatida amalga oshirildi. Harakatlar strategiyasi o'z mohiyatiga ko'ra "amaldagi falsafa" sifatida ishladi – u nazariy qarashni amaliy harakatga, g'oyani islohotga, tafakkurni tizimli faoliyatga aylantirdi[1, 592].

Keyingi bosqich — Taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) esa bu jarayonning tabiiy va mantiqiy davomidir[2]. U "harakatdan rivojlanishga", ya'ni jarayonni tezlikdan sifatga o'tkazish bosqichini ifodalaydi. Falsafiy ma'noda bu bosqich O'zbekistonning milliy o'zligini global modernizatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirish bosqichi hisoblanadi. Strategiyada inson qadri, adolat, qonun ustuvorligi, gender tengligi va ma'naviy yuksalish asosiy mezon sifatida belgilangan. Shu tariqa, O'zbek modeli endilikda "inson markazidagi rivojlanish paradigmasi" sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bunda insonni rivojlanishning obyekti sifatida emas, balki bosh maqsadi va vositasi sifatida ko'rish muhimdir. Islohotlarning har bir yo'nalishida inson qadri, tafakkur madaniyati, axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy adolat tamoyillari asosiy mezonga aylanmoqda. Bu esa jamiyatda tafakkurga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantiradi.

Har bir strategik model — bu tafakkurning moddiylashgan shakli. U inson tafakkuri va amaliy faoliyatining sintezi sifatida namoyon bo‘ladi. Strategik modellashtirish falsafiy jihatdan jamiyatni o‘zini tushunishga, o‘z yo‘lini anglashga va o‘zini o‘zgartirishga undaydi[3]. Shu sababli boshqaruvni faqat siyosiy hodisa sifatida emas, balki ma’naviy-axloqiy jarayon sifatida tushunish lozim.

Modellashtirishda jamiyatning ichki mantiqi, inson ongi va ijtimoiy qadriyatlari inobatga olinadi. Bu jarayon ijtimoiy tizimlarni matematik yoki iqtisodiy modellar orqali emas, balki insoniy maqsad, ruhiy ehtiyoj va axloqiy mezonlar orqali shakllantirishni nazarda tutadi. Shuning uchun strategik modellashtirishda asosiy masala – rivojlanishning g‘oyaviy poydevorini to‘g‘ri belgilashdir.

Modellashtirish jarayonida jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, avlodlar davomiyligi va mavjud ijtimoiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi[4, 89]. Chunki ijtimoiy tizimlar statik emas, balki doimo o‘zgaruvchan, murakkab va ko‘p omilli tuzilmalardir. Ularning rivojlanishini bashorat qilish yoki yangi strategiyalar ishlab chiqishda faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar yoki texnik parametrlar bilan cheklanib bo‘lmaydi. Bu jarayonda insonning ijtimoiy identifikatsiyasi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy adolat haqidagi tasavvurlari, manfaat va ehtiyojlarning uyg‘unlashuvi birlamchi o‘rinda turadi.

Shu bois strategik modellashtirishning muvaffaqiyati, avvalo, jamiyatning ma’naviy-ruhiy holatini chuqur tahlil qila olish, uning ichki tamoyillarini anglash va kelajak tasavvurini aniq shakllantirish bilan bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, qaror qabul qiluvchilar oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: ijtimoiy fikrni o‘rganish, aholining ehtiyoj va kutganlarini aniqlash, jamiyatning umumiy maqsadlari bilan shaxsiy manfaatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan sharoitlarni yaratish.

Strategik modellashtirish jarayonida ijtimoiy barqarorlik, milliy manfaatlar, xavfsizlik tamoyillari va adolat me’yorlari asosiy poydevor sifatida qaraladi. Modellashtirilayotgan jamiyatning kelajakdagi manzarasi faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki insonning o‘zini jamiyatda qay darajada erkin, munosib va baxtli his etishi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun bunday jarayonlarda “inson qadri” tamoyili bosh mezon sifatida xizmat qiladi.

Natijada ijtimoiy modellashtirish – bu jamiyatning ertangi kunini oldindan ko‘rish emas, balki uni ongli ravishda yaratish, mavjud imkoniyatlarni umumiy manfaat yo‘lida safarbar qilish va barqaror rivojlanishning ijtimoiy-madaniy asoslarini mustahkamlash jarayonidir. Shu mazmunda modellashtirish jamiyatni har tomonlama yuksaltirishga qaratilgan ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy mexanizmlarning uyg‘un tizimini shakllantirish vazifasini bajaradi[5, 97].

Zamonaviy falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan strategik modellashtirish “ilmiy tafakkur” va “axloqiy mas’uliyat”ni uyg‘unlashtiruvchi jarayon sifatida talqin etiladi. U insoniyatni shunchaki taraqqiyotga emas, balki mazmunli rivojlanishga, ya’ni maqsadli va qadriyatlarga asoslangan harakatga undaydi. Bugungi islohotlar tizimida strategik modellashtirish insonning ongini o‘zgartirish, uni faol subyekt sifatida shakllantirishning vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Har qanday modernizatsiya o‘z ildizidan uzilsa, barqarorlikni yo‘qotadi. Shu bois O‘zbekiston tajribasida milliy qadriyatlar bilan innovatsion yondashuv uyg‘unligi ustuvor o‘rin tutadi. Strategik modellashtirishda milliy mentalitet, tarixiy xotira va xalqning ma’naviy merosi asosiy omil sifatida ko‘rilmoqda.

Global muammolarning yuqorida keltirilgan mezonlari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari mazkur yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan aksariyat tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarning umumiy sinttezini aks ettiradi. Ushbu mezonlar global muammolarni boshqa turdagi mahalliy yoki mintaqaviy muammolardan aniq farqlash, ularning mohiyati, tizimli xususiyatlari va ta’sir doirasini belgilash imkonini beradi[6]. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, muammoning keskinlik darajasi, dolzarbligi va barqaror rivojlanishga xavf solish ko‘lami uni tegishli tasnifga ajratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Shu bois global muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish jarayonida ularni turli guruhlariga ajratish – ya’ni analitik tasniflash usuli qo‘llanadi. Bunday tasniflash jarayonining maqsadi faqatgina ularni ajratish yoki ro‘yxatlashtirishdan iborat emas. Aksincha, u hozirgi zamon geosiyosiy, ekologik, demografik va texnologik ziddiyatlarni kompleks o‘rganishning metodologik poydevori sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuv global muammolarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning bir-birini kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi, shuningdek, ular o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy determinatsiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Tasniflashning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u global muammolar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini ajratib ko‘rsatish, ularning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, keskinlashuv darajasini aniq baholash va ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, ekologik xavfsizlik, global iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, migratsiya bosimi, resurslar tanqisligi, informatsion xavfsizlik, raqamli tengsizlik kabi umumjahon muammolari o‘zaro tizimli bog‘langan bo‘lib, ularni izolyatsiyada hal etish amaliy jihatdan samara bermaydi.

Bu jarayon O‘zbekistonning “Harakatlar strategiyasi”, “Taraqqiyot strategiyasi” hamda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi bilan ham bevosita uzviy bog‘liqdir. Mazkur strategik hujjatlarda global muammolarning milliy rivojlanish jarayoniga ta’sirini baholash, ularning

oqibatlarini yumshatish, barqaror taraqqiyotni ta'minlash uchun institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarni kuchaytirish vazifalari belgilangan[7, 118]. Jumladan:

- global iqlim o'zgarishining O'zbekiston iqtisodiyoti va suv resurslariga ta'siri;
- xalqaro migratsiya jarayonlarining yangi geoiqtisodiy oqibatlari;
- axborot makonidagi xavfsizlik masalalari;
- raqamli tengsizlik va texnologik asimmetriyaning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri;
- transchegaraviy ekologik muammolarning Markaziy Osiyo makonida kuchayishi

kabi omillar strategik rivojlanish masalalarini global kontekstda ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, izchil, ilmiy asoslangan va aniq metodologiyaga tayangan tasniflash nafaqat mavjud ilmiy tadqiqotlarning ma'lum bosqichini sarhisob qiladi, balki global muammolarni o'rganishda yangi paradigma va yangi yondashuvlar boshlanganini ham anglatadi. Bu esa milliy strategik rejalashtirish jarayonida global xavf va imkoniyatlarning kompleks, tizimli va bashoratli tahlilini olib borishga zamin yaratadi.

Yangi O'zbekiston siyosatining falsafiy mohiyati ham aynan shunda: u o'z tarixini unutmagan, ammo global tafakkur bilan uyg'unlashgan jamiyatni barpo etmoqda. Bunday yondashuv "traditsiyadan innovatsiyaga", "o'tmishdan kelajak sari" tamoyillarini o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasiga" tamoyili oddiy siyosiy shior emas, balki jamiyat tafakkurining evolyutsiyasi, yangi ijtimoiy ong darajasiga o'tishning ramzidir[8].

Yangi O'zbekiston falsafasining zamirida jamiyatni yangilashning uch asosiy omili — inson, qadriyat va taraqqiyot o'zaro uyg'unlikda talqin qilinadi. Bunda inson nafaqat islohotlarning obyekti, balki ularning bosh subyekti sifatida qaraladi. Shu bois taraqqiyot jarayonlari avvalo inson manfaatlari, uning erkinligi, bilimi, tashabbusi va ma'naviy salohiyati asosida shakllanadi. Bu yondashuv jamiyatning tub mohiyatini anglashga, o'zgarishlarni faqat tashqi boshqaruv mexanizmlari orqali emas, balki odamlar ongidagi ijtimoiy-ma'naviy uyg'unish orqali amalga oshirishga qaratilgan.

Yangi O'zbekiston konsepsiyasi o'zida milliy o'zlikni anglash va global integratsiya o'rtasidagi uyg'un muvozanatni yaratadi. Bunda milliy an'ana, tarixiy meros va madaniy xotira jamiyatning ruhiy tayanchi sifatida saqlanadi, ammo ular zamonaviy ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar bilan boyitilib, yangi mazmun kasb etadi. Natijada qadimiy tamaddun va zamonaviy tafakkur sintezi vujudga keladi.

Taraqqiyot strategiyasining falsafiy mazmuni ham aynan shunda namoyon bo'ladi: jamiyatni yangilashning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishning o'zi emas, balki insonning har

tomonlarga kamol topishi, uning qadr-qimmatini va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdir. Shu bois bu strategiya jamiyatning faqat tashkiliy tuzilishini o'zgartirishga emas, balki uning ma'naviy-me'yoriy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan yaxlit tizim sifatida maydonga chiqadi.

Shu ma'noda, Yangi O'zbekiston g'oyasi — bu mafkuraviy paradigma emas, balki ijtimoiy ongning yangilanish falsafasi, jamiyat va davlatning hamkorlikda taraqqiyot sari intilishi, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari uzviy o'tishning konseptual modelidir[9].

Bu o'zgarishlar jarayonida ta'lim, madaniyat, axloq va ilm-fan strategik boshqaruvning muhim yo'nalishlariga aylandi. Chunki faqat moddiy islohot emas, balki ma'naviy yangilanish barqaror taraqqiyotning poydevoridir. Shu bois Yangi O'zbekistonning strategik modellashtirish konsepsiyasi – bu “aql, ma'naviyat va texnologiya” uchligini uyg'unlashtirish jarayonidir.

Xulosa. Yangi O'zbekiston sharoitida strategik modellashtirish – bu nafaqat boshqaruv tizimi, balki milliy tafakkurning yangi bosqichidir. U jamiyatni o'zgarishlarga tayyorlaydi, insonni markazga qo'yadi, boshqaruvni ma'naviy maqsadlar bilan bog'laydi. Strategik modellashtirish inson tafakkurining tizimlilik, izchillik, ongli rejalashtirish va bashorat qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bu jarayonda davlat siyosati shunchaki reja emas, balki falsafiy harakat, jamiyat esa ob'ekt emas, tafakkur subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekiston modeli shu jihatdan inson ongining, tafakkur madaniyatining va ijtimoiy mas'uliyatning sintezidir. Strategik modellashtirish bu – milliy o'zlikni anglash, jamiyatni g'oyaviy uyg'onishga yetaklovchi falsafiy konsepsiya, millat tafakkurining yangi uyg'onish davridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017.– 592 b.
2. O 'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.
4. Форрестер Дне. Мировая динамика: Пер. с англ.-М.:1978;
5. Медоуз Д. Пределы роста. - М., 1991;
6. Печчеи А. Человеческие качества. -М.:1986.
7. O'zbekiston: fuqarolik jamiyat sari. Mas'ul muh. R.Alimov. – T.:

- “Sharq”, 2003. –B. 73.
8. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. –T.: O‘zbekiston, 2010. –B. 52.
9. O‘zbekistonda 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. –T.: Yuksalish umummilliy harakati. 2021. -160 b
10. Абдуллаева М.Н. Национальная идея в контексте синергетики // Миллий истиқлол ғояси ва мафқураси, фалсафий ва ҳуқуқий жиҳатлари. –Т., 2001